

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA O'XSHATISH VOSITALARINING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI	
1.1. O'xshatish tilshunoslik fanining bo'limi sifatida	9
1.2. o'xshatish vositalarining turlari.....	15
1.3. O'xshatish vositalarining uslubiy ahamiyati.....	18
I. BOB. YUZASIDAN XULOSA	23
II. BOB. YAPON VA O'ZBEK TILLARIDA O'XSHATISH VOSITALAR (metafora, metonimiya va snekdoha) INING QIYOSIY TAHLILI	
2.1. O'zbek va yapon tillarida o'xshatish vositalarining tutgan o'rni	24
2.2. O'zbek va yapon tillarida metafora va uning qiyosiy tahlili	32
2.3. O'zbek va yapon tillarida metanimiya va sinekdohaning qiyosiy tahlili	40
II. BOB YUZASIDAN XULOSA	50
XULOSA	51
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	54

KIRISH

Bugun jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir

ISLOM KARIMOV

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va ertangi kun xalq xo'jaligi uchun mutaxassislar tayyorlashning yo'l-yo'riqlarini belgilab bergan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da tarbiya va ta'limni yuqori darajaga ko'tarish, millat ma'naviy bilimdonligini oshirish, xalq ta'limning insoniy-gumanitar xususiyatlari to'liq ta'minlashini, ilg'or pedagogik, texnologiyalarini o'quv jarayoniga tadbiq qilish ko'zda tutilgan. Yoshlarga ishonch bildirish, ularning tashabbus va salohiyatini ro'yobga chiqarish bugungi kunning ustuvor vazifasidir¹.

Har bir xalqning muloqot xulqi insonning ruhiyati, millati, yashash joyi, ma'naviyati, e'tiqodi, urf-odati, yoshi, jinsi, kasb-hunari va ijtimoiy o'rniga muvofiq bir-biridan farq qiladi. Bunday farqni hisobga olgan holda munosabatlarga zarar yetkazmaslik uchun har ikkala xalqning o'rganish nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi deb o'ylaymiz. Albatta muloqot xulqini to'g'ri tarzda namoyon qilish uchun ushbu tilning qonun qoidalarini o'rganish juda muhim sanaladi. Yapon tili o'zining murakkab tuzilishga ega ekanligi bilan boshqa tillardan farq qiladi. Bular tildagi bog'lovchi so'zlarning ko'pligida hamda ularning ma'no va shakl jihatidan bir-biriga o'xshash ekanligida namoyon bo'ladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, yapon tiliga xos bo'lgan etimologik jihatlar hamda ushbu tilni o'rganish jaroyonida namoyon bo'ladigan tilning nozik va farqli jihatlari ayniqsa o'zga til egalari uchun murakkab sanaladi.

¹Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari-oliy qadriyat. –T.: O'zbekiston, 2006. - B. 98.

Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili - bu millatning ruhidir²”. Til bilish – madaniyat belgisi. Chunki bu boshqa millat vakillari bilan erkin muloqot qilish, ulardan o’rganish va ular bilan tinch-totuv, hamkor-u hamnafas bo’lib yashash imkonini beradi. Ayni vaqtda jamiyatimizda til madaniyatini oshirishda ko’p ish qilishimiz lozim. Chunki til masalasi hozirgi tobora taraqqiy etib borayotgan jamiyatda katta ahamiyatga ega. Mustaqillik barcha sohalar qatorida tilshunoslikda ham tub o’zgarishlarga zamin yaratdi. Bunday o’zgarishlar samarasi, avvalo, ilmiy tadqiqotlarning keng yo’lga qo’yilganligida, ilmiy tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishida yaqqol namoyon bo’lmoqda. Har qanday fanning taraqqiyoti unga xos bo’lgan analitik va sintetik tadqiqotlar nisbiy yetakchiligining tadrijiy almashinib borishidan iborat. Analitik bosqichning asosiy maqsadi o’rganish ob’ektini qismlarga ajratib o’rganish bo’lsa, sintetik talqin muayyan bosqich darajasida o’rganilgan qismlarni butunga birlashtiradi. Analitik va sintetik tadqiqotlarni keskin chegaralab bo’lmaydi. Zero, qismlar o’rganilayotganda butunga asoslaniladi, butun tadqiqotida qismlar nazarda tutiladi. Shuning uchun analitik bosqich sintetik bosqichni, sintetik bosqich analitik bosqichni doimo taqozo etadi, lekin bulardan biri muayyan tadqiqotda nisbiy yetakchilik qiladi va asosiy ilmiy maqsad unga qaratiladi. Aslida ushbu bilish yo’llari asosida qism va butunning muhim belgilari aniqlanadi hamda tadqiqot ob’ektining mohiyati bosqichma-bosqich ochilaveradi. Ushbu o’rinda muhtaram prezidentimiz. Karimov I. A.ning quyidagi so’zlarini keltirib o’tishni o’rinli hisoblaymiz: “Milliy davlatchiligimizni qayta tiklashda, ko’p asrlik beqiyos ma’naviy merosimiz, tarix-u madaniyatimiz, din-u tilimiz va muqaddas urf-odatlarimiz yanada qad rostlashida muhim omil vazifasini bajaradi³”. So’nggi yillarda jahon tilshunosligida matn muammosiga qiziqish kuchayib ketdi. Bu qiziqish sistemalilikni yuqori sath birliklaridan ham izlash, til va nutqning statik va dinamik sistemalarini farqlash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Dunyo tilshunosligida keying yillarda uslubshunoslik sohasida ham salmoqli

² Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008. - B. 83.

³.Karimov I.A. Halollik va fidoyilik-faoliyatimizning asosiy mezonini bo’lsin.-T.: O’zbekiston, 1994.

yutuqlarni qo'lga kiritildi. Ma'lumki, tildagi barcha so'zlarni nominativ xususiyati jihatidan harakat bildiruvchi, nomlovchi, va baholovchi so'zlarga ajratish mumkin. Baholovchi so'zlar-ravishlar, sifatlarda nomlashdan ko'ra, baholash, konnotativ xususiyat ustunlik qiladi. Bunday so'zlardagi atash-denotativ ma'no, tasvirlash-konnotativ ma'no bilan uzviy aloqada bo'ladi. Konnotativ ma'no yozuvchi yoki so'zlovchilarning munosabatini ifodalovchi so'z semantik strukturasiining bir qismi sanaladi. So'zlovchining ichki kechinmalarini ifodalovchi va tinglovchining xislariga ta'sir qiluvchi narsa ham xuddi ana shu holat bilan belgilanadi. O'xshatish vositalari stilistik strukturasiidagi emotsionallik ham, ekspressivlik ham nutq jarayonida ta'sirchanlikni oshiruvchi elementlar sanaladi

Shu o'rinda XIX asrda yashagan xorazmlik shoir Avaz O'tarning

Har tilni bilu emdi bani odama jondir,

Til vositayi robitayi olamiyondir,

degan fikrlari bir bashorat emasligini, chet tillarini o'rganish, uni bilishga da'vat etish o'zini ma'rifatparvar hisoblagan har bir insonning burchi bo'lganini anglash qiyin emas. XIX asrdan farqli o'laroq, chet tillarini o'rgatish va o'rganish fan va texnika rivojlangan bizning davrimizda bog'cha yoshidan boshlab shug'ullanish imkonini beradi. Prezidentimiz qarorida belgilangan vazifa ham shunday, ya'ni, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarini uzluksiz o'rganishni tashkil etishdir.

Chet tillarini o'rganishga bo'lgan bu sa'y-harakat xalqimiz tomonidan xayrixohlik bilan kutib olindi-ki, bu yosh avlodning intellektual salohiyatini yuksak darajaga ko'tarishni yana bir muhim omili ekani keng jamoatchilik tomonidan e'tirof etilmoqda.

“Zakovatning ko'rki tildir”, - deydi buyuk alloma Yusuf xos Hojib. Darhaqiqat, har bir o'zbek o'z salohiyatini, aqlu- zakovatini nafaqat o'z ona tilida, hech qanday tarjimonlarsiz bir vaqtning o'zida bir necha tilda namoyon eta olsa, tarixda “Zullisonayn“ deb nom olgan A Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalarning avlodi ekanini isbotlaydi

BMIning maqsad va vazifalari.

MBIning maqsadi Ushbu BMI dan ko`zlangan asosiy maqsad– yapon tilini o`rganuvchilar uchun avvalo o`zbek tilidagi o`xshatishlarning hamda yapon tilidagi o`xshatishlarning o`ziga xos o`xshash va farqli tomonlarini ko`rib chiqish hamda, -anketa so`rovnomasiga asoslangan holda yapon tili o`rganuvchilar uchun mazkur o`xshatishlarni qo`llashdagi muammoli jihatlarini aniqlab, xatoga yo`l qo`yish sabablarini tahlil qilgan holda yoritib berish hisoblanadi. Ushbu BMI orqali o`quvchilar yapon va o`zbek tillarida o`xshatishlarning farqli va o`xshash tomonlarini bilib olishlari mumkin.

BMIning vazifalarini quyidagilar tashkil etadi:

- Yapon tilidagi o`xshatishlarga ta`rif izoh berish va ularning lug`aviy ma`no va shakllarini tahlil qilish ;
 - Yapon tilidagi o`xshatishlarni bir-biridan farqlash va o`ziga xos jixatlari, hususiyatlarini tahlil qilish;
 - Yapon tilidagi o`xshatishlarni o`zbek tilida o`rganuvchilari uchun qanchalik oson va qanchalik qiyinligini tahlil etish;
 - O`z ona tilida o`rganganda qanchalik qiyinchilik tug`dirishi darajasini tahlil etish
- Ilmiy yangiligi. Ushbu BMIning ilmiy yangiligi shundan iboratki, yapon tilidagi o`xshatishlarning o`ziga xos xususiyatlarini, o`zbek tili bilan umumiy va farqli tomonlarini tushuntirib berishdir. Shu bilan birga o`shbu BMIda shu paytgacha qilingan tadqiqotchilarning fikrlaridan ham keng foydalanildi. BMIda dastlab yapon va o`zbek tillaridagi o`xshatishlarning umumiy xususiyatlari, so`ngra metanimiya, metafora, snekdoxa haqida alohida ma`lumotlar berildi. Ushbu ma`lumotlar kelgusida yapon tilini o`rganayotganlar uchun foydadan holi bo`lmaydi, albatta ushbu BMI o`xshatish vositalarining yapon tilida tutgan o`rni va ahamiyatini o`zbek tili bilan taqqoslab tushuntirib beradi. Bu orqali yapon tilida o`xshatish vositalari qanday bo`lishini bilib olish mumkin. Ushbu BMI orqali shu narsa aniqlandiki yapon va o`zbek tillarida o`xshatish vositalari bir xil o`rinda va bir xil vazifada ishlatiladi, ularning farqi faqatgina yasalish usulida hisoblandi

Mavzuning predmeti va obyekti: Tadqiqot predmeti sifatida yapon tilini o'rganuvchilar va o'rgatuvchilar uchun yaratilgan qo'llanmalar va darsliklardan, shu jumladan rus, ingliz, yapon olimlarining maqolalaridan, keyin esa Toshkent Davlat Sharqshunoslik Institutida faoliyat yuritayotgan professorlarning saytlaridan foydalanildi. Ilmiy tadqiqot obyekti sifatida yapon tilidagi o'xshatish hamda SamDCHTI yapon tili yo'nalishi o'qituvchilari va talabalari olindi.

Tadqiqot metodlari:

Ushbu BMIning yozish davomida eng ko'p qiyosiy metoddan foydalanildi. Shuningdek yapon tilidagi tasviriy vositlar o'zbek tili bilan qiyoslagan holda o'rganib chiqildi. Qiyosiy metod ko'pchilik tomonidan keng ravishda foydalaniladigan metod sanaladi. Tarjima metodi esa samarali metodlardan bo'lib, ayniqsa chet tillarini o'rganishda keng qo'llaniladi. Chunki biror bir chet tili o'z ona tiliga tarjima qilingan holda o'rganiladi. Tarjima metodlari orasida eng ko'p tarqalgani bu "grammatik tarjima metodi"dir. Ammo tarjima metodida matnning faqatgina bir bo'lagini yoki uni og'zaki tarjima qilish g'ayrimetodik usul hisoblanib, muayyan maqsadda tarjima qilish man etiladi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati: Har bir fanni nazariy jihatdan mustahkamlash muhim sanaladi. Chunki nazariya uni amaliyotda qo'llash uchun poydevor vazefasini bajaradi. Ushbu BMIning nazariy ahamiyatiga keladigan bo'lsak yapon tilidagi o'xshatishni to'laroq yoritish, u haqdagi ma'lumotlarni yanada boyitishdir. Yapon tilidagi o'xshatish vositalarini o'zbek tili bilan qiyoslab o'rganish ularning umumiy va farqli tomonlarini o'rganish tilda tutgan o'rni hamda ahamiyati haqida to'liq ravishda tushuncha berishdan iboratdir. Til fikrlash quroli sifatida kishilar uchun o'z ko'rgan –bilganlarini tartibga solish narsa –hodisalarni o'zaro qiyoslab, muhim tomonlarini umumlashtirishga imkon beradi. Odamlar o'z tajribalarini, ma'daniy boyliklarini so'z va gaplar yordamida ifodalab, avlodlarga meros tariqasida qoldiradilar. Demak, insonlar uchun tushunarli va umumiy til bo'lmasa jamiyat ishlab chiqarishi to'xtaydi, uning o'zi buzulib, tarqalib ketadi va jamiyat shaklini yo'qotadi. Bu ma'noda til jamiyatning uyushish, kurash va rivojlanish quroli hamdir. O'xshatish vositalari ham har bir tilda o'z o'rniga ega

hisoblanadi. O'xshatish vositalari tilshunoslikda muhim o'rin egallaydi. Hech bir til yo'qki o'xshtish vositalarini inkor qiladigan. O'xshatish vositalari o'zi alohida emas balki tasviriy vositalar ya'ni troplar ichida o'rganiladi ularni stilistika ichida o'rganish maqsadga muvofiq, shunday ekan men ushbu BMIda ikki tilni taqqoslab o'rganishni maqsad qildim.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: BMI o'xshatishlar haqida umumiy ma'lumot berilib, yapon tilini endi o'rganuvchilar uchun tushunarli bo'lgan misollar orqali tadqiqot olib borildi. Bundan tashqari mazkur tadqiqot ishi orqali talabalar va yapon tilini o'rganuvchilar yapon tilidagi o'xshatishlar haqida nazariy ma'lumotlarga ega bo'lib,ularni amalda qo'llay olish va uning hayotda qo'llanilish ahamiyati to'g'risida yetarlicha ma'lumotlar olishlari mumkin. Mazkur ish keyingi tadqiqotlar uchun asos yoki qo'shimcha material bo'lishi mumkin, shuningdek u tilshunos talabalar, ayniqsa, sharq madaniyati bo'yicha mutaxassislar hamda yapon tilshunosligi bilan shug'ullanuvchilar, qiziquvchilar uchun qo'llanma vazifasini o'tashi mumkin.

I BOB. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA O‘XSHATISH VOSITALARINING TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI

I.1. O‘xshatish tilshunoslik fanining bo‘limi sifatida

O‘xshatishlar har bir tilda muhim vosita hisoblanadi ular tilshunoslik fanining muhim bo‘limlaridan biri sifatida o‘rganiladi. O‘xshatishlar hamma tillarda bir xil maqsadda ishlatiladi ular tilshunoslik fanida ko‘chimlar ham deb ataladi. Ko‘chimlar deyilganda “adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko‘chirish yoki so‘zlarning umuman ko‘chma ma'noda ishlatilishni” nazarda tutiladi. So‘z ma'nosining ko‘chish jarayonlari turli ko‘rinishlarda voqe bo‘ladi, bu jarayonlar va ularning natijalari sifatida yuzaga keladigan hodisalar, bu hodisalarning turlari, o‘ziga xos xususiyatlari kabi masalalar o‘zbek tilshunosligida ancha batafsil o‘rganilgan. Ko‘chimlar deyarli ko‘pchilik adabiyotlarda «troplar» atamasi ostida o‘rganilgan. “Badiiy tekstning lingvistik tahlili” qo‘llanmasida ko‘chimlar quyidagicha tasnif qilingan: «1. So‘z ma'nosining miqdoriy ko‘chishiga asoslangan troplar: a) giperbola; b) meyozis, 2. So‘z ma'nosining sifatiy ko‘chishiga asoslangan troplar: a) metafora; b) metonimiya; v) ironiya.» qolgan tasviriy vositalar mazkur ko‘chimlarning ko‘rinishi sifatida beriladi: «simvol, jonlantirish, epitet – apastrofa –metaforaning; perifraza, sinekdoxa, allegoriya, epitet – metonimiyaning; antifraza, sarkazm – ironiyaning; litota meyozisning ko‘rinishlaridir» Badiiy matnning lingvopoetik tahliliga tartganda ko‘chimlar deb ataladigan tasviriy vositalarning deyarli barchasining asosida o‘xshatish, chog‘ishtirishdan iborat mantiqiy tushuncha yotganligini unutmash kerak.

Metafora. Narsa-buyum, voqea va hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro o‘xshashlikka asoslangan ma'no ko‘chishiga metafora deyiladi. Metafora ko‘chma ma'no hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri bo‘lib, mumtoz adabiyotshunosligimizda “istiora” deb yuritilgan. Metaforaning ikki turini farqlash lozim: lingvistik metafora va xususiy-muallif metaforalari. Lingvistik metaforalar til taraqqiyoti bilan bog‘liq hodisa hisoblanadi. “Bunday metaforalar asosan, atash, nomlash vazifasini bajarganligi uchun ularda uslubiy bo‘yoq, ekspressivlik,

binobarin, ular ifodalagan nutq predmetiga nisbatan subyektiv munosabat aks etmaydi.” Faqatgina ma’lum bir so’zning ma’nodoirasi kengayadi hamda yangi tushunchalarni atash uchun xizmat qiladi. Masalan: *odamning oyog’i, odamning ko’zi – uzukning ko’zi, ko’ylakning etagi– tog’ning etagi* kabi. Xususiy-muallif metaforalari esa yozuvchining estetik maqsadi, ya’ni borliqni subyektiv munosabatini qo’shib ifodalagan holda nomlashi asosida yuzaga keladi. Ular uslubiy jihatdan bo’yoqdorlikka va voqelikni obrazli tasvirlash xususiyatiga ega bo’ladi. Shuning uchun ham badiiy matnda qahramonning his-tuyg’ularini ta’sirchan, yorqin bo’yoqlarda, aniq va ixcham ifodalashga xizmat qiladi. Xususiy-muallif metaforalarida hamisha konnotativ ma’no mavjud bo’ladi. “Metafora orqali ma’no ko’chishida konnotativ ma’no yorqinroq aks etadi. Masalan, ot, eshak, qo’y, it, bo’ri, tulki, yo’lbars, boyo’g’li, musicha, burgut, lochin, qaldirg’och, bulbul kabi hayvon va qushlarning nomlari bo’lgan leksemalar mavjudki, bu so’zlar o’z ma’nosidan tashqari, ko’chma ma’noda juda keng qo’llanadi. Otning baquvvatligi, eshakning aqlsizligi, qo’yning yuvoshligi, itning vafodorligi, mushukning epchilligi, tulkining ayyorligi, burgutning changallashdagi kuchliligi, lochinning ko’zi o’tkirligi kabi tipik xususiyatlari boshqa predmetlarga nisbatan metaforik usulda ko’chiriladi, natijada konnotativ ma’no yuzaga keladi hamda matnning ta’sirchanligi oshadi”⁴. Metafora bilan o’xshatish konstruktsiyaning o’zaro farqi haqida tilshunoslarimiz o’zlarining fikrlarini aytib o’tishgan. Ularda asosan quyidagi farqlar sanab o’tiladi: 1. O’xshatishda so’zlar o’z ma’nosi bilan ishtirok etadi. 2. O’xshatishda ikki komponent – o’xshatiluvchi o’xshatiluvchi obyekt va o’xshovchi obraz qiyoslanadi. Metafora esa bir komponentli bo’ladi. 3. O’xshatishlarda kengayish imkoniyati ko’p, bir gap hatto abzas darajasida kengayishi mumkin. Metaforalar esa so’z yoki so’z birikmasidan iborat bo’ladi. 4. O’xshatishda maxsus ko’rsatkichlar bo’ladi: -dek, -day, -*simon*, -*larcha*, *kabi*, *singari*, ko’rsatkichlar bo’ladi. Buni quyidagi misoldan ham ko’rish mumkin: *Karim tulkiday ayyor odam*. O’xshatish konstruktsiya, Bunda ***Karim*** – o’xshatish subyeksi, ***tulki***– o’xshatish etaloni, ***ayyor*** – o’xshatish asosi, ***-day*** – o’xshatishning

⁴ Tursunov U., Muxtorov J, Rahmatullaev Sh. Hozirgi o’zbek adabiy tili. O’zbekiston. Toshkent. O’zMU. 1992.

shakliy ko'rsatkichi. Bu to'liq o'xshatish. *Karim – tulki*. Bu qisqargan o'xshatish, chunki gapda o'xshatish asosi (qaysi xususiyati o'xshashligi) va ko'rsatkichi ifodalanmagan. *Voy, tulki-yey...* (Karimga nisbatan ishlatilmoqda) Bu Metafora hisoblanadi. Chunki, Karimning ayyorligi obrazli tarzda ifodalanyapti, butunlay qayta nomlanyapti. Metaforalarga misollar: 1. ***Eshshak***, *bu nima qilganing?* 2. *Qamoqxonalarning “telegrafi” (gap tashuvchi, ayg'oqchi) juda aniq ishlaydi.* 3. – *Ko'ksiga pichoq sanchibdi, – dedi barak navbatchisi. -Battar bo'lsin! Itga it o'limi. Mahbuslar baribir uni tirik qo'yishmasdi.*4. – *Oshga pashsha tushdi, aka! – dedi qo'rqa-pisa...*

“Devoriy gazeta” o'lgur keldi. 5. *Qishdan qolgan qarg'alar.* 6. ***Bu qalamun bilan uchrashuv.*** (S.Ahmad) 7. ***Otabek bu cho'ltoq supurgini tanidi va uning istehzolarini payqadi*** (A. Qodiriy). Ayrim manbalarda metaforalarning mazmuniy jihatdan uch turi mavjudligi aytiladi: odatiy, jonlantirish va sintetik metaforalar. Yuqorida ko'rib o'tilgan metaforalarning barchasi, asosan, odatiy metaforalardir. Jonlantirish badiiy nutqqa obrazlilik baxsh etuvchi muhim vositalardan biridir. “Badiiy san'atlar” kitobi mualliflari bu haqda shunday yozadilar: “Jonlantirish – istioraning bir ko'rinishi. Jonlantirish odamlarga xos bo'lgan xislatlarni jonsiz predmetlar, tabiat hodisalari, hayvonot, parranda, qush kabilarga ko'chirish orqali paydo boladigan tasvir usulidir”. “O'zbek tili stilistikasi”da ham “kishining harakatlari, his-tuyg'ulari, so'zlash va fikrlashlari jonsiz predmetlarga ko'chirilishi”ga jonlantirish deyilishi ta'kidlanadi. Mumtoz adabiyotimizda jonlantirishning ikki turi farqlangan:

Tashxis –shaxslashtirish, jonsiz narsalarni insonlarday tasvirlash. She'riyatda jonlantirishdan voqelikni obrazli tasvirlash maqsadida foydalaniladi. Tasvir obyektiga kitobxonni yaqinlashtirish, voqelikning anglanishini osonlantirish va quruq-rangsiz ifodadan qochish uchun ham mazkur usulga murojaat qilinadi. Quyidagi she'riy parchada muallif “kuz”ni jonlantirish orqali kitobxonning tasvirlanayotgan voqelikka munosabatini faollashtiradi:

Nimani xohlayman?Istagim nima?

Changalzor shovqinin tinglab turaman.

Yaproqlar bandida kezgan jimgina

Ma'yus va bezovta kuzni ko'raman.

Uning qo'shig'ida, uning ohida

Sezaman odamzod qalbin gohida.(A.Oripov)

Yoxud jonsiz narsaga insonga murojaat qilgandek munosabatda bo'lish ham jonlantirishning bir ko'rinishi hisoblanadi. Adabiyotshunoslikda bu hodisa apastrofa deb yuritiladi. Bunda narsa-buyum jonlantirilmaydi, faqat jonli deb tasavvur qilinadi. Bu usuldan qahramonning hech kimga aytolmagan ichki dardlarini, sirlarini oshkor qilishda foydalaniladi. Masalan: *Osmonga intilgan daraxtlar, ildizingiz yerdaligini bila turib, kelib-kelib sizni quchgan ko'k bag'rini tilasizmi? Har bahor yashlikka aldanganingizni hazon pallasida sezmayisizmi yo hammasini bila turib, hammasini seza turib shamol izniga bo'ysunasiz, shitirlaysiz. Men ham shivirlayman... Sizgaingan shudring mening ko'z yoshim... Bilaman, bor dardimni to'kib solmasam ham voqifsiz ahvolimdan. Zotan, siz tirik xotirasiz. Bebosh yaproqlarning shivir-shiviri, mungli yomg'ir kuy, egilmachiq maysalar, injiq shamol, chuchmoma xo'rsinig'i, yuragimning ado bo'lmas o'kinchi, siz soddagina daraxtlarim va men egilishni eplolmagan asov g'alayon – hammamiz yolg'iz sog'inch bilan bog'langanmiz.*(Y. Akram)

Intoq – nutq sohibi sifatida tasvirlash, insonlardek gapirish demak. Intoq bolalarga atalgan she'r va hikoyalarda, ertak va masallarda ko'p qo'llaniladi. Intoq san'atidan masallarda alohida maqsad bilan foydalaniladi. Insonlarga xos ba'zi qusurlar kamchiliklar narsa-buyumlar misolida obrazli qilib ko'rsatib beriladi. Yevropa adabiyotshunoslik ilmida allegoriya deb ataladigan ko'chim ham “gapirtirish” usuliga asoslanadi. Intoq-jonlantirishda narsa va buyumlar, hayvonlar insonlardek gapiradi. Allegorik-jonlantirishda “hayvon va jonivorlar insonlar kabi harakat qiladi, ular kabi gapiradi. O'quvchi esa asosiy e'tiborini shu hayvonlar orqali tasvirlanayotgan inson obraziga qaratadi. Demak, allegoriyada obrazlar sistemasi ikki qator hisoblanadi, ya'ni asarda tasvirlanayotgan hayvonlar obrazlari qatori va ular orqali shu xarakterdagi kishilar qatori” Muxtor Xudoyqulovning “Sher bilan pashsha” deb nomlangan masalida ham ayrim insonlarga xos

maqtanchoqlik, yolg'on ishlatib bo'lsa ham obro' topishga urinish illati obrazli ifodasini topgan: *Bir pashsha Sherning qulog'iga bir zum qo'ndi-yu, uchib ketdi. So'ng ko'ringanga maqtandi:– Biz Sher bilan juda yaqinmiz, ko'p masalalarda u men bilan maslahatlashib turadi... Pashshalarga ishonmang!*

Sinestetik metaforalarda bir sezgi organi bilan idrok etiladigan "tushuncha boshqa sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa-tushunchaga o'xshatiladi, yaqinlashtiriladi va shu asosda ko'chma ma'no yuzaga keladi. Masalan: *Shirin tabassum, shirin gap, shirin uy; yengil tabassum, yengil nigoh, yengil qadam, og'irtush, og'ir gap, og'ir masala* kabi. Bu misollarda keltirilgan shirin, yengil, og'ir sifatlarida sinestetik metafora sodir bo'lgan. Maza-ta'm ma'nosini bildiruvchi shirin" va o'lchovni ifodalovchi "yengil" so'zlari "yoqimli" ma'nosida, "og'ir" so'zi esa "yoqimsi" ma'nosida kelgan.

Metonimiya deb voqea-hodisa, narsa-buyumlar o'rtasidagi o'zaro yaqinlik va bog'liqlik asosida ma'no ko'chishiga aytiladi. Metonimiya ham qiyosga asoslanadi. Faqat "metaforada bir-biriga o'xshash predmetlarning belgilari qiyoslansa, metonimiyada bu ikki predmet tashqi ko'rinishi yoki ichki xususiyatlari bilan bir biriga qandaydir aloqasi bo'lsa ham, ammo, umuman bir-biridan farq qiluvchi (bir biriga o'xshamagan) predmetlarning belgilari chog'ishtiriladi"⁵

Masalan:...*yaxshiliqmi, yomonliqmi haytovur bo'ladirgan ko'ngilsiz gapni kechikkani yaxshi... Fuzuliyini yaxshilab o'qish kerak.*(A.Qodiriy) Ushbu gapda muallif va uning asarlari o'rtasidagi aloqadorlikka asoslanib, "asar" muallif nomi bilan qayta nomlanyapti. Yoki; Saroy tinch uyquda, tun yarim (A.Qodiriy).Bu misolda "saroy"so'zi orqali "saroydagi odamlar" ma'nosi ham ifodalangan. Metonimiyaning turli ko'rinishlari mavjud va bu haqda tilshunoslikka oid adabiyotlardan atroflicha ma'lumot olish mumkin. Biz sizga bir mansurani havola qilmoqchimiz. Unda muallifning metonimik qayta nomlash usulidan mahorat bilan foydalanganiga o'zingiz guvoh bo'lasiz:

Xemengueyni o'qish

⁵ Jamolxonov. H. Hozirgi o'zbek adabiyot tilidan ma'ruza matnlari. Toshkent. O'qituvchi. 2000

– Aka Xemenguey ham badimga urib ketdi, – dedi buxorolik shoir. – Endi o'qiyapman Jabron Xali, Folkner, Frishni.

O'sha kuni uyga keldim. Yana kezib chiqdim o'zim sevgan Ernst olamlarini.

To'g'ri ekan. Badga urishi mumkin ekan hatto Xemenguey ham.

Agar o'z erking ko'rinsa juda uzoq. Ishonching darz ketsa.

Tuyulsa omonat, liqildoq.

Muomalaga o'rgatar Xemenguey. Olijanob muomalaga. Biz esa tobora yiroqlashib boryapmiz bunday muomaladan. (I.G'afurov).

1.2. O'XSHATISH VOSITALARINING TURLARI

O'zbek tilida ham ma'no ko'chishning quyidagicha turlari mavjud:

Metafora usuli bilan ma'no ko'chirish. Predmet yoki voqea hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik asosidagi ma'no ko'chirish deyiladi (lotincha metaphora – “ko'chirish” degan ma'noni bildiradi). Metafora bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ular o'rtasidagi ma'lum o'xshashlik asosida ko'chishidir. Masalan, tandirning og'zi birikmasidagi og'iz so'zining ma'nosi odam yoki hayvon og'ziga tashqi o'xshashligi asosida vujudga kelgan. Narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik turli asosda bo'lishi mumkin: Predmetlar o'rtasidagi o'xshashlik uchun ularning turli jihatlari asos qilib olinishi mumkin. Masalan: odamning burni – geografik burun, ko'ylakning etagi – daryoning etagi, osmondagi oy – bayroqdagi oy kabi. Bu o'rinda predmetlarning tashqi jihatdan o'xshashliklariga alohida ahamiyat berilgan. Shuningdek, ularning ichki o'xshashliklari, vazifaviy bir xilliklari asosida ham ma'no ko'chiriladi. Misol uchun toza ko'ylak – toza odam, to'g'ri yo'l – to'g'ri gap, do'stim keldi – suv keldi kabi.

Metafora usuli bilan ma'no ko'chish hodisasi **ot, fe'l, sifat** so'z turkumlarida ko'p uchraydi. Misollarga e'tibor beraylik: oltin kuz, temir intizom, po'lat iroda; shirin gap, achchiq haqiqat, uzun suhbat; suhbat qizidi, ko'ngli sovudi, gap cho'zildi. E'tibor berilsa, barcha o'rinlarda o'xshashlik birinchi o'ringa chiqayotganini va metaforani vujudga keltirayotganini sezish mumkin. Metafora usulidan **badiiy uslubda** ham faol foylaniladi.

Metonimiya (aloqadorlik) asosida nom ko'chish.

Metonimiya so'zi yunoncha **metonumia** – “**qayta nomlash**” so'zidan olingan bo'lib, biror predmet, voqea-hodisani o'xshashlik asosida emas, balki zamon va makondagi o'zaro aloqadorlik asosida yangi nom bilan ataydi, birinchisining nomi ikkinchisiga ko'chadi. Metonimiyaning asosiy ko'rinishlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: Biror predmet yoki hodisadagi nom shu qismga ko'chiriladi. Masalan: shahar – odamlar g'uj yashaydigan, madaniy markaz. Butun shahar ko'chib chiqdi gapida esa shaharda yashovchi odamlar nazarda tutilyapti. Bosh – odam gavdasining yelkadan yuqori qismi. Boshim qotib qoldi

gapida esa miya ma'nosini beryapti. Demak, bunday holatlarda predmetlar o'rtasidagi ma'no ko'chirish uchun mezon qilib olinadi. Biror narsaning nomi shu narsaga asoslangan o'lchov birligining nomi sifatida olinadi: kun-quyosh, kun-24 soatlik o'lchov birligi, soat-kun vaqtlarini aniq ko'rsatib beruvchi mexanizm, soat – aniq vaqt, oy – samodagi planeta nomi, oy – yil bo'lagi. Bir predmetning nomi shu predmetdan hosil qilingan narsaga ko'chiriladi. Masalan, choy-o'simlik, choy-ichimlik, suv-tabiiy suyuqlik, suv-har xil sanoat mahsulotlari va hokazo. Belgining nomi shunday belgisi bor narsaga ko'chiriladi; achchiq (maza, ta'm) – achchiq (qalampir), chayon (zaharli hasharot) – chayon (serjahl, yomon odam), zahar (og'u) – zahar (maraz odam) va shu kabilar. Ayrim narsa predmetlar nomi ma'lum bir xatti-harakatlar natijasida o'zaro aloqadorlik yo'li bilan hosil qilingan, lekin bu usul diaxron xarakterga ega bo'lib, tilimizning bugungi bosqichida uchramaydi: qatlama – xamirni qat-qat qilib qo'yish natijasida, to'y – to'ymoq fe'lidan, qirindi – qirmoq so'zidan yasalgan. Boburni yodladim, Amerikani uchratdim, Navoiyni varaqlab ko'rdim, Navoiyni oldim qo'linga kabi birliklarda ham aloqadorlik hodisasi mavjud deb qaraladi.

Sinekdoxa asosida nom ko'chishi

Sinekdoxa so'zi yunoncha synekdoche – nazarda tutish so'zidan olingan bo'lib, qism orqali butunni, butun orqali esa qismini ifodalash sanaladi. Sinekdoxa usuli asosida ham predmetlar orasidagi aloqadorlik yotadi. Shu bois unga metonimiyaning bir ko'rinishi sifatida baho berish ham mumkin, lekin bu aloqadorlikda butun bo'lak munosabati doimo yaqqol ko'rinib turadi. Misollarga e'tibor beraylik: Tuyuq boqmoq (mol yoki qo'y boqmoq), tirnoqqa zor (farzandga) kabi ko'rinishlarda qism orqali butun ifodalanyapti. *O'zbekiston yutdi, Farg'ona keldi* iboralarida esa bir kishi yoki guruh nazarda tutiladi. Bunday o'rinlarda esa butun orqali qism ifodalanadi.

Vazifadoshlik asosida nom ko'chishi

Ma'no ko'chishning yana bir usuliga funksional ko'chish deyiladi. Ba'zi bir adabiyotlarda unga vazifadoshlik asosidagi ma'no ko'chish, ya'ni vazifadoshlik deb ham baho beriladi. Bu usulning mohiyati shundan iboratki, ma'no ikki predmet

o'rtasidagi vazifaviy o'xshashlik asosida ko'chiriladi. Masalan: oyoq insonning tik turishi uchun xizmat qiladigan anatomik organi. Stulning oyog'i deb ataganimizda ham mana shu funksiyaga asoslaniladi. Odamning ko'zi – derazaning ko'zi (har ikkalasi ko'rish uchun), *qushning qanoti – samolyotning qanoti* (hap ikkalasi uchish).

Intoq – nutq sohibi sifatida tasvirlash, insonlardek gapirish demak. Intoq bolalarga atalgan she'r va hikoyalarda, ertak va masallarda ko'p qo'llaniladi. Intoq san'atidan masallarda alohida maqsad bilan foydalaniladi. Insonlarga xos ba'zi qusurlar kamchiliklar narsa-buyumlar misolida obrazli qilib ko'rsatib beriladi.

Yevropa adabiyotshunoslik ilmida allegoriya deb ataladigan ko'chim ham “gapirtirish” usuliga asoslanadi. Intoq-jonlantirishda narsa va buyumlar, hayvonlar insonlardek gapiradi. Allegorik-jonlantirishda “hayvon va jonivorlar insonlar kabi harakat qiladi, ular kabi gapiradi. O'quvchi esa asosiy e'tiborini shu hayvonlar orqali tasvirlanayotgan inson obraziga qaratadi.”

Tashxis –shaxslashtirish, jonsiz narsalarni insonlarday tasvirlash. She'riyatda jonlantirishdan voqelikni obrazli tasvirlash maqsadida foydalaniladi. Tasvir obyektiga kitobxonni yaqinlashtirish, voqelikning anglanishini osonlantirish va quruq-rangsiz ifodadan qochish uchun ham mazkur usulga murojaat qilinadi. Quyidagi she'riy parchada muallif “kuz”ni jonlantirish orqali kitobxonning tasvirlanayotgan voqelikka munosabatini faollashtiradi: Yoxud jonsiz narsaga insonga murojaat qilgandek munosabatda bo'lish ham jonlantirishning bir ko'rinishi hisoblanadi. Adabiyotshunoslikda bu hodisa apastrofa deb yuritiladi. Bunda narsa-buyum jonlantirilmaydi, faqat jonli deb tasavvur qilinadi. Bu usuldan qahramonning hech kimga aytolmagan ichki dardlarini, sirlarini oshkor qilishda foydalaniladi.

1.3. O'xshatish vositalarining uslubiy ahamiyati

Tilshunoslik faninig muhim bo'limlaridan biri bu uslubshunoslik bo'lib bu bo'lim har bir til bo'limining o'ziga xos uslublarini o'rganadi Shunday qilib uslubiyat tasviriy vositalar ya'ni o'xshatishlarda ham muhim o'rin egallagan o'xshatish vositalarining o'ziga hos tomoni shundan iboratki bu vositalar tilning tasirchanligini oshirishda katta ro'l o'ynaydi

Ko'p manoli so'zlar va ma'nolarning to'g'ri va ko'chma manolarga bo'linishi tilshunoslik fanidan bizga ma'lum. Borliqdagi narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat, nomlari ma'lum bir asosga ko'ra boshqa bir narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nomi sifatida ham qo'llaniladi. Bunday vaqtda bitta nom bir nechta narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nomi sifatida xizmat qiladi. Masalan: burun so'zi tirik organizmning yuz qismidan bo'rtib chiqqan nafas olish organi manosini ifodalash bilan birgalikda «yerning suvlikka tomon bo'rtib chiqqan qismi» manosini ham ifodalaydi. Predmetlar o'rtasidagi tashqi o'xshashlik birining nomini ikkinchisi o'rnida qo'llashga asos bo'ladi.

Mano ko'chishning nima asosida ro'yobga chiqishiga ko'ra metafora, metonimiya, sinekdoxa vazifadoshlik singari turlari mavjud

Metaforaning uslubiy axamiyati

Metafora (yunoncha *metphora*-ko'chirish) bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ular o'rtasidagi ma'lum o'xshashlik asosida ko'chishidir.

Masalan: Tandirning og'z birikmasida og'iz so'zining ma'nosi odam yoki hayvon og'ziga tashqi o'xshashligi asosida vujudga kelgan narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik turli asosda bo'lishi mumkin

Ikki predmet o'rtasida shakliy o'xshashlik. Masalan: odam qulog'i va qozon qulog'i Ikki predmet qayerda joylashishi bo'yicha masalan: itning dumi, samolyot dumi va boshqalar. Nutq jarayonida metaforadan o'rinli foydalanish nutqimizni ta'sirchan jozibali qiladi. So'zlovchining badiiy-estetik qobiliyatini namoyon etadi. Bulardan tashqari metaforaning tasirchanligini sezish uchun yana bir qancha misollarni keltirishimiz mumkin: Masalan: odamning burni – geografik burun, ko'ylakning etagi – daryoning etagi, osmondagi oy – bayroqdagi oy kabi. Bu

o‘rinda predmetlarning tashqi jihatdan o‘xshashliklariga alohida ahamiyat berilgan. Shuningdek, ularning ichki o‘xshashliklari, vazifaviy bir xilliklari asosida ham ma‘no ko‘chiriladi. Misol uchun toza ko‘ylak – toza odam, to‘g‘ri yo‘l – to‘g‘ri gap, do‘stim keldi – suv keldi kabilarni keltirish mumkin.

Metaforaning uslubiy jihatini quyidagi sheriylar parchada ko‘rib chiqamiz

Barcha haq ishida bo‘ling salomat
Yog‘sa ham har yondan tavqi-malomat
Ezgu ishingizni ettiring davom
Yaratgan qo‘llagay sizlarni mudom.
Kim sherik bor desa agar ollohga
Shubhasiz botgaydir kata gunohga.
Nohaqdan bir inson qonini to‘kmoq
Gunoh dengiziga baayni cho‘kmoq.
Ota-onasiga kimki bo‘lsa oq
Bu ham og‘ir gunoh bo‘lgay mutloq.
Agarda yolg‘ondan bersa guvohlik
Uning ham gunohin kechirmas Holiq.
Shu to‘rtta gunohdan kim bo‘lsa forig‘
Bilingki, ularning manglayi yorug‘.

Yuqoridagi sheriylar parchadan quyidagi mano ko‘chish turlarini aniqlash mumkin.

1)“tavqi-malomat yog‘moq” – bu metafora usulida mano ko‘chish hisoblanadi. Tavqi malomatda qolish uning haddan ziyod ko‘p bo‘lishi yomg‘ir yog‘ishiga qiyosan ishlatilayapti. 2)“Gunohga botmoq” iborasi bo‘lsa juda ko‘p katta gunohda qolish manosini beruvchi botmoq so‘zi bilan berilayapti bu ham metafora usulida mano ko‘chish hisoblanadi 3) “og‘ir gunoh” gunohning kattaligini qarab uni ko‘rsatish uchun og‘ir so‘zidan foydalanilayapti bu ham metafora usulida mano ko‘chish hisoblanadi. Yuqoridagi sheriylar parchadan olingan misollardan ko‘rishimiz mumkinki metafora ham asarning tasirchan va ekspressivligi uchun

kata xizmat qiladi. metaforadan unumli va to'g'ri foydalanish uslubiy jihatdan juda kata ahamiyat kasb etadi.

Metonimiyaning uslubiy ahamiyati

Metonimiya – yunonchadan olingan so'z bo'lib u ham tilshunoslikda o'z uslubiy ahamiyatiga ega u ham qayta nomlash hisoblanadi. U narsa va hodisalar o'rtasida makon va zamondagi o'zaro aloqadorlik asosida birining nomini ikkinchisiga ko'chirish hisoblanadi.⁶ *Navoiyni oldim qo'limga* deydilar. Navoiyni qo'lga olib bo'ladimi? U buyum emas-ku qo'lda ko'tarib yuradigan. *Bedilni o'qir edim* deydilar. Bedil kitob emas-ku. *Samovorda osh yedik* deymiz samovar ustiga o'tirib osh yeb ko'ring-chi, kuyib qolasiz bular hammasi metonomik mano ko'chish hisoblanadi. Hojiboy Tojiboyevning “o'zbekning gapi qiziq “ ruknidagi bunday hangomalarni ko'p eshitganmiz va huzur qilib kulganmiz, lekin bu hangomalardan nima uchun kulushimiz sababini bilasizmi? Hojiboy Tojiboyevning mahorati shundaki, u o'zining hangomalarida so'zning o'z va ko'chma manolaridan to'g'ri va o'rinli foydalana oladi. Shuning uchun ham uning hangomalariga hammamiz miriqib kulamiz. Yuqoridagi keltirilgan gaplar tarkibida kulgi qo'zg'atish uchun asos bo'lgan so'zlarning barchasi ko'chma manoning bir turi metonimiyaga asoslangan.

Yuqoridagi misollarda shoir bilan uning asarlari choy ichiladigan joy bilan choy qaynatiladigan buyum o'rtasidagi aloqadorlik asosida birinig nomi ikkinchisiga ko'chgan. *Navoiyni qo'lga oldim* deganda Navoiy asarlarini *Bedil o'qir edim* deganda ham uning asrlarini tushunamiz. Metonimiya asosida ko'chma mano hosil qilish fikrimizni londa ifodali, ta'sirchan bayon qilishning bir yo'li sanaladi.

Bulardan tashqari metonimiyaga yana quyidagich misol keltirishimiz mumkin. Masalan: 1)“Rossiya”ga qanday borsam bo'ladi? (bekatdagi yo'lovchining murojati) 2) Ichak-chavog'im tugadi endi kalla sotaman.(qassobning gapidan) 3)mabodo “Besh bolali yigitcha” kelmadimi? (kitobxonning sotuvchiga

⁶ A. Nurmonov, A. Sobirov, Sh. Yusupova “hozirgi o'zbek adabiy tili” Toshkent-“ilm ziyo”-2010

bergan savolidan) 4) Navbatim sumka ko'targan "jinsi"dan keyin (xaridorning javobi)

Yuqoridagilardan malumki metonimiyadan uslubiy to'g'ri foydalanish nutqimizni yanada tasirchan bo'lishida katta ahamiyat kasb etadi.

Sinekdoxa va uning uslubiy axamiyati

-Farzandi bormi?

-Tirnoqqa zor.

Yuqoridagi dialogda tinglovchi so'zlovchining savoliga "yo'q" deb javob berishi ham mumkin edi. Lekin u "tirnoqqa zor" iborasini. Bu bilam suxbat mavzusiga aylangan shxsnning farzandi yo'qligini bayon qilish bilangina cheklanib qolmasdan, uning farzand ko'rishga tashnaligini ham alohida ta'kidlab ko'rsatdi.

Nima uchun farzand yoki bola o'rniga tirnoq so'zi ishlatilayapti? tirnoq bolaning bir kichkinagina a'zosi. Shu a'zoga ham zorligi, tashna ekanligini bildirish bilan bo'rttirib ko'rsatilayapti.

Bu o'rinda butun bir narsa, ya'ni bola uning qismi – tirnog'i orqali ifodalanayapti. Ana shunday ma'no ko'chish usuli sinekdoxa deyiladi.

Sinekdoxa yunoncha synecdoche- birgalikda anglash so'zidan olingan bo'lib, bo'lak orqali butunni yoki butun orqali bo'lakni ifodalashni bildiradi. Ma'no ko'chishning bu turi ham nutqimizning ta'sirchanligini oshirishda, ifodali, jozibali bo'lishida katta ahamiyatga ega hisoblanadi

Yuqoridagi misollardan ma'lum bo'ladiki sinekdoxa ham uslubiy jihatdan nutqimiz uchun kerakli tasviriy vosita hisoblanadi. Quyida ma'no ko'chishining bazilari qo'llanilgan kichkina bir hikoyani taxlil qilamiz

Ikki kishi poyezdda hamroh bo'lib ketishayotgan edi. Ulardan birining ko'zi tashqarida o'tlab yurgan qo'y-qo'zilarga tushdi va dedi:

-Qiziq bu yerdagi tuyoqlar soni nechta ekan-a?

Ikkinchisi ularga qarab turdi-da, shunday deb javob berdi.

-o'tloqda bir ming qirq uchta qo'y bor.

-o'lay agar, -dedi birinchisi.-shu qo'ylarning egasi bo'lmaganimda. Bu gapingizga sira ishonmagan bo'lardim. Qanday topdingiz?

Buning hech ham qiyin joyi yo'q, dedi hozirjavoblik bilan unisi.-barcha tuyoqlarni hisoblab chiqib, to'rtga bo'ldim-qo'ydim....

Yuqoridagi parchadan metaforaga quyidagi misolni topishimiz mumkin. *ko'zi tushdi* bu ko'rmoq manosini berayapti ko'rmoq so'zining o'rniga bu jumlani ishlatish matinni yanada tasirchan va bo'yoqdor bo'lishiga yordam berdi. Bu parchadan sinekdoxa ham mavjud *tuyoqlar* so'zi butun bir qo'y-qo'zi manosini berayapti.

Vazifadoshlik asosida mano ko'chishning uslubiy axamiyati

Ko'chalarni chiroqlar yop-yorug' qilib turibdi. Chiroq piligini pasaytirdi.

Yuqoridagi ikki gapda qo'llanilgan chiroq so'zining ma'nosiga e'tibor bersangiz, u bir xil vazifa bajaruvchi ikkita bir-biriga o'xshamaydigan narsalarni ifodalayotganining guvohi bo'lasiz. Birinchisida "elaktr toki orqali yorituvchi noksimon yoki tayoqsimon asbob"ni, ikkinchisida esa "kerosinga pilik solish vositasi bilan yorituvchi asos va shisha qisimlardan tashkil topgan asbob"ni bildiradi.

Bu asboblarning shakliga ko'ra bir-biriga o'xshamaydi, makon va zamonda ularning aloqadorligi ham yo'q, lekin har ikkisi yoritish vazifasini bajaradi. Ana shunday vazifaviy bir xillikka ko'ra ilgari yog'ga pilik tekkizish orqali yoritiladigan shishasiz, ochiq asbob nomi keyinchalik asos qismiga shisha o'rnatilgan yoritgich asbobini, keyinroq esa elektr tokidan foydalanishga o'tilgandan so'ng lampochkalarni ifodalash uchun ham qo'llaniladi. Natijada chiroq so'zi bir-biriga o'xshamaydigan xilma-xil yorituvchi vositalarga isbatan qo'llanila boshlandi.

Narsa va hodisalar o'rtasidagi vazifaviy bir xillik asosida birining nomi ikkinchisining ifodalanishi vazifadoshlik asosida mano ko'chish deyiladi.

Vazifadoshlik asosida vujudga kelgan so'zlarni bilish, ularning ilgari qanday shakldagi narsalarni ifodalaganligini anglash tilimiz imkoniyatlarining naqadar boy ekanligini his qilishimizga yordam beradi.

I BOB YUZASIDAN XULOSALAR

Men ushbu BMIning birinchi qismida o'xshatish vositalari xaqida o'zbek tilida malumotlar berib o'tdim. Unda o'xshatish vositalarining tilshunoslikdagi o'zni ahamiyati uslubiy jihatdan tutgan o'zni va o'ziga xos xususiyatlari xaqida batafsil malumotlar berildi. Bu tadqiqot natijasida shu narsa malum bo'ldiki, o'xshatish vositalari nutqimizda muhim o'rin egallaydi. Tasviriy vositalardan umumli va o'rinli foydalanish nutqni yanada tasirchan va ravon qiladi. Men ushbu BMIimda o'xshatish vositalariga bir qancha misollar keltirib ular orqali o'xshatish vositalarining o'zni va ularning bir-biridan farqini tushuntirishga harakat qildim. Keltirilgan misollardan shuni kuzatish mumkinki o'zbek tilida ham o'ziga xos xususiyatga ega o'ziga xos uslubga ega bo'lgan sharoitda o'xshatish vositalari mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu BMI dan qo'llanma sifatida foydalanish mumkin. U hammaga tushunarli misollar bilan yoritib berildi. Ushbu BMI ni o'qigan odam o'xshatish vositalarini o'son va tez tushunadi.

II BOB. YAPON VA O'ZBEK TILLARIDA O'XSHATISH (metanimiya, sinekdoha va metafora)LARNING QIYOSIY TAHLILI

2.1. O'zbek va yapon tillarida o'xshatish vositalarining tutgan o'rni

Tilshunoslik faninig muhim bo'limidan biri bo'lgan o'xshatish vositalari o'zbek va yapon tillarida muhim ahamiyatga ega bilim hisoblanadi. Hech bir til yo'qki bu vositalarni ishlatmaydigan. Bu vositalar orqali tilning ichki ko'rinishlari ham jozibali va tasirchan holda yetkaziladi. O'xshatish vositalari hamma tilda mavjud bo'lib ular turli usulda va turlicha nomoyon bo'ladi. Ularni faqat yasalish usuli ajratib turadi xususan yapon va o'zbek tillarida ham bu vositalar mavjud bo'lib ular ikki tilda turlicha ifodalanadi

Metafora –bu grekcha so'z bo'lib ko'chim, ko'chirma degan manoni bildiradi. Nutqda obrazlilik ekspressiv bo'yoq berish niyatida narsa va xodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib so'z yoki iboralarni ko'chma manoda qo'llash metaforadir. ”ひょうしょうによる表現することの中には、喩えというしゅうじが使われるために、表象よりも曖昧なものがあり、それは隠喩いんゆ、メタファーと呼ばれる”⁷ Masalan: *odamning oyog'i*-人のあし *stolning oyog'i*-机の足 *odamning ko'zi* –人の目 *uzukning ko'zi*-指輪の目, *ko'ylakning etagi*-ふくのした *tog'ning etagi*-山の下 kabi. 隠喩は、換喩かんゆとの対比のなかで、より狭く定義すれば、全体を全体で表象するような修辞 (=表現のシステム) である

Metafora orqali ma'no ko'chishida konnotativ ma'no yorqinroq aks etadi.

聖書は、メタファーと譬え話に満ちた文書の典型としてしばしば挙げられている。聖書およびイエス・キリストのたとえ話は、西洋文学におけるメタファーのありかたに多大な影響を与えている。わたしはぶどうの木、あなたがたはその枝である。もし人がわたしにつながっており、またわたしがその人とつながっていれば、その人は実をゆたかに結ぶ。— 新約聖書、『ヨハネによる福音書』 15:5、イエスの言葉 私は、世の光です。私に従う

⁷北原保雄 1981 『日本語の文法』(『日本語の世界 6』中央公論社)

者は、決して闇の中を歩むことがなく、いのちの光を持— 新約聖書、『ヨハネによる福音書』

あなたがたは、地の塩である。もし塩のききめがなくなったら、何によってその味が取りもどされようか— 新約聖書『マタイによる福音書』

G'arb adabiyotida metaforaning mukammal ko'rinishi payg'ambar Iso Masihning masallari va muqaddas injil kitobida keng foydalanilgan. Yapon adabiyotchilari injilni o'qib ko'rib unda metafora orqali tushuntirilgan holatlarga duch kelishadi. Yaponlar uni mukammal o'rganib chiqishadi. Buning natijasida yapon adabiyotida metaforaning mukammal va yangi ko'rinishlari yaratila boshlandi Muqaddas injilda quyidagi metaforalarni ko'rishimiz mumkin unda Isoning quyidagi so'zlari metafora usulida tasirchan qilib berilgan “Men dunyoning nuriman”. “Yangi Ahd” “Yuhannoning Injil” hayot nur, zulmatda yurmaydi menga ergashganlar hech qachon zulmatda qolmaydi. Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki Iso Masih o'zini nurga qiyoslagan.

日本の仏教の文書にもメタファーは見出すことができる。

Yapon tilida ilk metaforalar yaponlarning muqaddas dini “buddizm” da ko'rishimiz mumkin.

Buddizm yapon tilidagi metaforalarning muhim hujjatli asosi hisoblanadi. 初めてメタファーの意義に言及したと言われているのはアリストテレスであり、彼は『詩学』のなかで次のように述べている。

「もっとも偉大なのはメタファーの達人である。通常 of 言葉は既に知っていることしか伝えない。我々が新鮮な何かを得るとすれば、メタファーによってである」

西洋の伝統的な修辞学では比喩(trope、転義法)が研究・分類されてきたが、その中でもメタファーは特に大きなテーマとして扱われている。

文芸においてはメタファーは一貫して称揚されている。

Yaponlar metaforani o'rganish jarayonoda uni birinchi bo'lib Aresritel o'zining “Ritorika” asarida ishlatganligini aniqlaydi. Aristotel eng buyuk metafora

ustasi hisoblanadi. Aristotel shunday deydi – “Oddiy so’zlardan biz faqatgina yangi manoni tushunishimiz mumkin. Metaforadan esa uni to’liq tasirchan qilib tinglovchiga yetkazish yo anglash uchun muhim ahamiyat kasb etadi” deb hisoblagan

隠喩の例は、おうをライオンで表象するようなものである。なぜならばライオンは動物の中の王、頂点に君臨するものだから、そして王もまた王国の頂点に君臨するから。

Metaforaga misol qilsak sher bilan podshoh bir biriga qiyoslanadi sher hayvonlar shohi bo’lsa podshoh insonlar shohi, asosan shohlar sherga qiyoslanadi. Bu yerda konnotativ mano shohning kuchliligini ifodalash hisoblanadi.

Masalan: おうをライオンある- Qirol sher

